

OT OBRAZIDA RAMZIYLI

Mahkamova Shahloxon Oxunjon qizi

Farg'ona viloyati Erkin Vohidov ijod maktabi murabbiyi

Annotatsiya: *Adabiyotda obraz tushunchasiga oid bir qator ilmiy qarashlar ishlab chiqilgan bo'lib, qanrovi, badiiy g'oyani ifodalashda badiiy obrazning o'рни kabi masalalar jahon va o'zbek adabiyotshunosligida nazariy jihatdan o'rganilgan. Tadqiq etilayotgan mavzu bo'yicha yetarli ilmiy manbalarga ega hisoblanadi. Ushbu maqola aynan asarlarda ot obrazi orqali ifodalangan ramziylikning tahlillariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *ramz, ramziylik, obraz, milliy xususiyat, badiiy g'oya...*

XX asr o'zbek adabiyoti nasrida juda katta o'ziga xos o'zgarishlar yuz berdi. Endi nasriy asarlarda nafaqat insonlar, balki jonivorlar ham asosiy obrazlar sirasida ahamiyat kasb eta boshladi. Bunday xususiyatga ega asar yozgan o'zbek adiblari sifatida Tog'ay Murod, Turob To'la, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, Normurod Norqobilov va boshqalarni kirita olamiz.

Bir nechta o'zbek nasrining zabardast vakillari ijodidagi ot obrazining tasvirlaridan misollar ustida fikr yuritmoqchimiz. E'tibor beradigan bo'lsak, yozuvchilarning barchasida otga bo'lgan ijobiy munosabatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular ot obrazini xuddi inson obrazi darajasiga ko'taradilar. Ba'zi bir o'rinlarda insondan ham afzal fazilatlarini tilga olinadi. Ot obrazi asarda shunchaki berilmaydi, u qahramonning xarakter xususiyatlarini yana-da oydinroq ochib berishga, davrning, ijtimoiy hayotning o'ziga xosliklarini tushuntirishda birlamchi obrazlar qatorida beriladi.

Ramz – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilish bilan bog'liq bo'ladi va ko'plab ma'nolarni anglatishi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud.

Ramziy shakllarning har qaysisi ma'lum bir idrok usulini ifodalaydi, ular orqali "haqiqat" ning o'ziga xos shakli yoritiladi.

Ramz majozdan farq qiladi, ya'ni ramzda obrazli qurilish mavjud bo'ladi va unda ko'p ma'nolilikka ahamiyat beriladi. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etgan holda, ko'pchilik xalqlar adabiyotida mushtarak ma'nolarni anglatadi. Adabiyot tarixida asrlar mobaynida foydalanib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud.

Xalq og'zaki ijodida va shuningdek mumtoz adabiyotda keng foydalanilgan ramziy tasvir usulidan hozirgi kundagi adabiy asarlarda ham samarali foydalanib kelinmoqda. Adabiyotda ranglar ham ma'lum o'ziga xos ramziy ma'nolarga ega bo'ladi. Masalan, sariq rang – mahzunlik, qora rang-motam, oq rang-poklik, moviy rang-musaffolik ramzlarini anglatadi. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma'noga ega bo'ladi.

O'zbek xalq ertaklaridan biri "Uch og'a ini botirlar " ertagidagi ramziylik haqida so'z borganda ularda ot obrazidagi ranglarga alohida diqqatimizni qaratishimiz mumkin bo'ladi. Chunki ertakdagi donishmand ota o'g'illariga uzoq safar oldidan uch xil ot hadiya qiladi:

“ – Men farzandlarimga eng yaxshi otlarni berdim. Qora ot-otlarning eng dovyuragi, tez chopqir va tishlog'ich. Ukalarini xavf-u xatardan asrashi uchun uni to'ng'ichimga berdim. Saman otning peshonasida yoki to'rttala oyog'ida qashqasi bo'lsa, u otlarning eng a'losi va sadoqatlisi bo'ladi. Uni o'rtancha o'g'limga berdim. Ko'k otning agar dumi qora rangda bo'lsa, otlarning eng ajoyibi bo'ladi. Uni G'irko'k ham deb atashadi. U shunchalar epchilki, hatto 40 metrga ham ko'tariladi”.

Haqiqatan, qora rang – ulug'vorlik ramzi. Qora otning botirlar orasidan kattasiga atalganligi ham uning salobatiga urg'u berilishi bilan bog'liq. Shu bilan birga katta botir bu oti bilan sherga qarshi jang qiladi, ma'lumki sherlarning ustunligi ularning o'tkir tishlaridadir. Qora ot ham tishlog'ichlik xususiyati bilan bu jangda egasini va o'zini saqlab qoladi.

Saman otning eng yaxshi fazilatlaridan biri bu uning o'z egasiga sadoqatidadir. Uning o'rtancha botirga berilishi ham o'ziga xos ramziy ma'no anglatadi. Chunki u uka sifatida akasiga va aka sifatida ukasiga sadoqat ko'rsatmog'i, tarozining ikki pallasini teng tutib turmog'i lozim edi. Masalan, katta akada faqat ukalar, kenja botirda esa faqat akalar bor. Shu ma'noda saman ot va o'rtancha botir birgalikda sadoqat ramzini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Ko'k ot xalq dostonlarida G'irko'k nomi bilan keladi. Bunday otlar juda chopqir va aqlli otlar sirasiga kiradi. Bu ot bilan kenja botir bir kechanning o'zida qaroqchilar to'dasi bilan olishib, kerakli narsalarni olib, akalari huzuriga qaytib keladi. Ko'k rang xalqimiz qadriyatlar orasida tinchlik ramzi ham sanaladi. Bu ertakda ham kenja botir yomonlarning jazosini berib, yurtda tinchlik o'rnatib, podshohning e'tiboriga sazovor bo'la oladi. Ertakdan ma'lum bo'lyaptiki ranglar ham asar mazmunini yana-da sayqallash, unga ramziy ma'no berish xususiyatiga egadir.

Endi Tog'ay Murodning ko'p tillarga tarjima qilingan, allaqachon o'zbek xalqining sevimli asariga aylangan “Ot kishnagan oqshom” qissasidagi ot obrazi Tarlonning asarda anglatgan ramziy ifodalari to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Ziyodulla chavandoz tilidan quyidagicha gaplar berilgan:

“Birodarlar, mashina deganlar temir! Joni yo'q! Joni yo'q temir odamga el bo'lmaydi! Temirning yuragi yo'q-da! Ot odamga el bo'ladi! Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!”¹

Bu qissada ta'rifi kamol topgan Tarlon laqabli ot obraziga singdirilgan ramziylik haqida shuni ayta olamizki, Tarlon obrazi jonli tabiat ramzidir. Uni bevosita yurt ramzi deb olsak ham bo'ladi. Yana bir boshqa rakursdan qaraganimizda Tarlon obrazi do'stlik, sadoqat va haqiqat kabi ramziy ma'nolarga ham ega desak adashmaymiz. Chunki Ziyodulla chavandoz otga mehr-muhabbati negizida butun bir tabiatga, undagi jamiki hayvonot-nabodot olamiga bo'lgan saminiy va sof tuyg'ularini, shuning bilan birga o'z ona vataniga sadoqatini ifoda etmoqda. Boshiga ne kunlarni solishmasin, o'zidan, o'zligidan aslo yuz o'g'irmagan. O'z navbatida Tarlon ham og'ir damlarda egasini xuddi odam singari, hatto ba'zi odamlardan ham ustun fazilatlarini namoyon etib qutqarib qoladi. Masalan:

“Haligilar qanday jonzot edi, Tarlon? Sinbati odamga kelbat beradi. Ust-boshlari-da bor. Odamga mayzab gapiradi, odamga mayzab kuladi...”².

¹ Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent. – 2017. B.4.

² Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Toshkent. Sano-standart.-2017.-B.171.

Ushbu jumalalarda otga odam kabi murojaat qilinishi orqali insonlar ramziy ma'noga olinganligini ko'rsatadi, albatta.

Ishq-muhabbat dunyoning asosi, u bilan hayot jozibador va maftunkor. Mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Alvido Gulsari!" asaridagi ot obrazi Gulsariga ham bir qancha ramziy ma'nolar yuklatilgan.

"Yana o'tloq orqali, o'sha yo'l bilan, o'sha hovli tomon jo'nashdi. Uy oldiga kelganlarida xo'jayini egar ustida yana qimirlay boshladi... Darvoza oldida to'xtashdi. Sirasini aytganda darvozaning o'zi yo'q edi... Tanaboy egardan tushib, yo'rg'ani jilovidan ushlaganicha yetaklab hovliga kirdi, derazaga yaqinlashib borib oynani taqillatdi.

-Kim u?- ovoz chiqdi ichkaridan.

-Men, Bibijon, och, eshityapsanmi, menman!..

Uyda chiroq yondi va derazalar xira yorishdi"³.

Yuqoridagi parchada asarning bosh qahramoni Tanaboy sobiq ittifoq qo'ylari va yilqilarini boquvchi cho'pon bo'lib, u ovuldagi Bibijon ismli beva ayolga uzoq yillardan beri ko'ngil qo'ygan edi. Bir kun uloq sabab Bibijonning visoliga musharraf bo'ladi va shundan keyin bir necha marotaba ularga diydorlashish nasib qiladi. Bu yerda Gulsari obrazini bevosita visolga eltuvchi, "diydor" ramzi deb olsak xato bo'lmaydi.

Tanaboy va Gulsarining umri ko'plab quvonch va tashvishlar orasida kechdi. Bir kuni quvonsa, bir kuni anduhni his etdi. Tanaboy ham Gulsari ham keksayib, madori ketib bordi. Asar yakunida Gulsarini so'ngi manzilga kuzatish ustida turgan Tanaboy butun bir o'tgan umriga razm soldi, hammasini bir-bir ko'z oldidan o'tkazdi:

"Tanaboy o'lgan otga qarab turib hayratda qoldi - unga nima bo'ldi! Gulsari kallasini orqaga tashlab, yonboshlab yotardi, unda yuganning chuqur botib ketgan o'rni ko'rinib turardi. Tars-tars yorilib ketgan tuyoqlaridagi taqalari yoyilib ketgan, bukilmaz oyoqlari cho'zilib yotardi. U endi yerlarda yura olmaydi, yo'llarda o'z izlarini qoldira olmaydi. Ketish kerak edi."⁴

Bu yerda Gulsarining o'limi, Tanaboyning o'y-xayollaridagi xotiralari bu dunyoda hech narsa abadiy emasligi, insonlar hatto o'z davrida tuyoqlaridan "o't chaqnagan" jonivorning ham, umuman olganda bashariyatning, dunyoning o'tkinchi ekanligi g'oyalari mujassam. Ot obraziga esa qisman "o'tkinchi umr" ramziy ma'nosini ham yukladik.

"Tanaboy yuganini yelkasidan oshirib tashlab, dasht bo'ylab ketib borardi. Yuzlaridan oqib tushayotgan ko'z yoshlari soqolini ho'l qilib yuborgandi. Lekin Tanaboy uni artmasdi. Bu - yo'rg'a Gulsari uchun to'kilayotgan yoshlar edi. Ko'z yoshlari orqali yangi tongga, tog' etagida tez uchib borayotgan tanho kulrang g'ozga boqdi. Kulrang g'oz o'z galasiga yetib olish uchun shoshilardi.

Uchaver, uchaver! - shivirlardi Tanaboy. - Qanoting tolmay turib, sheriklaringga yetib ol. Keyin xo'rsinib dedi: - Alvido, ey Gulsari! U ketar ekan, qulog'iga qadimgi qirg'iz ashulasi eshitila boshladi..."⁵.

³ Chingiz Aytmatov. Alvido Gulsari.-Toshkent: Im-ziyo-zakovat.- 2020. -B.56-57.

⁴ Chingiz Aytmatov. Alvido Gulsari.-Toshkent.-2020.-B.187.

⁵ Ko'rsatilgan manbaa. - B.188.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, badiiy asarlarda ot obrazining turli ramziy ma'nolari ifodalab kelganligini ko'rib chiqdik va bu ramziy ma'nolar aynan ot obraziga yuklanishining sababi, albatta, xalqimiz tomonidan otga yaqin munosabatning kuchli ekanligini isbotlashga urindik. Berilgan ramziy ma'nolar ostida milliy tuyg'ular, qarashlar, o'ziga xosliklar yashiringanligini anglash mumkin. Birgina obrazga ko'pgina ramziy ma'nolar yuklay olish, albatta, adiblarning mahoratidan darak beradi.

Biz ushbu maqolada badiiy asarlardagi ot obrazining mahorat bilan tasvirlangan o'rinlariga e'tibor qaratdik. Ularning nechog'lik badiiy mahorat va hayotiy haqiqatlar negizida shakllanganligini tahlil qilishga urindik. Shu bilan birga ot obrazi bilan bog'liq o'rinlarda kechgan inson obrazining ruhiy olamini, uning naqadar murakkab va nozikligini tahlil qilishga harakat qildik. Ot obrazi orqali anglashilgan ramziylikni tahlil qilishga haminqadar muvaffaq bo'ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Toshkent: Sano-standart. - 2017.
2. Qunduz bilan Yulduz. Doston. - Toshkent: Fan, 1963. - 276. B.
3. Chingiz Aytmatov. Alvido, Gulsari. Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat. - 2020.